MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANUVCHILARNI IJTIMOIYLASHTIRISH JARAYONIDA JAMIYATDAGI QADRIYATLAR, XULQ-ATVORLARNI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Xursanova Matluba G'anisher qizi
Maktabgacha ta'lim va metodikasi magistranti
Email: matlubaxursanova@gmail.com

Qabul qilindi: 14.10.2025
Ko'rib chiqildi: 15.10.2025
Tasdiqlandi: 16.10.2025

Kalit so'zlar:
ijtimoiylashuv, milliy qadriyat, xulq-atvor, tarbiya, hamkorlik , maktabgacha ta'lim tashkiloti.

Annotatsiya. Mazkur tezisda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarning ijtimoiylashuvi jarayonida jamiyatdagi milliy qadriyatlar va xulq-atvor normalarini shakllantirishning samarali yo'llari haqida yoritilgan. Bugungi globallashuv zamonda yosh avlodni milliy va umuminsoniy urf- odat va qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash dolzarb masala hisoblanadi. Shu nuqtayi nazardan, ta'lim-tarbiya jarayonida birinchi o'rinda oilaning, maktabgacha ta'lim muassasasining hamda jamiyatning hamkorligi muhim o'rin tutadi.

Kirish: Bugungi kunda jamiyatning har tomonlama rivojlanishi va duyo miqiyosida nufuzli o'rin olishi yosh avlod tarbiyasi bilan chambarchas bog'liqdir. Ayniqsa, maktabgacha yosh davri inson hayotida va shaxsining shakllanishida poydevor vazifasini bajaradi. Shu sababli, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida bolalarni ijtimoiylashuv jaryoniga tayyorlash, ularning xulq-atvorini rivojlantirish va qadriyatlarga sodiqlik ruhida tarbiyalash davlatimiz siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Asosiy qism. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashuvga yo'naltirishda quyidagi asosiy jihatlarga e'tibor qaratish lozim:
1. Oila tarbiyasi va maktabgacha ta'lim hamkorligi. Bola dastlabki ijtimoiy ko'nikmalarni birinchi bo'lib oilada egallaydi. Maktabgacha ta'lim tashkiloti da bu jarayonni davom ettiradi va rijojlantiriladi.
2. Milliy va umuminsoniy Qadriyatlar orqali tarbiya. Bolalarda milliy qadriyatlarni anglash, odob-axloq qoidalarini bilish ko'nikmalarini shakllantirish, kattalarga hurmat hissini uyg'otish va kichiklarga g'amxo'rlik qilish ko'nikmalarini shakllantirish zarur.

3. Ijtimoiy faoliyatga jalb etish jaryonlariga esa guruhiy o‘yinlar, kichik sahna ko‘rinishlari, bayram tadbirlari orqali bolalar bir-birlari bilan hamkorlik qilishni o‘rganadilar.

4. Texnologiyalarni qo‘llash. Innovatsion pedagogik metodlar, didaktik materiallardan samarli foydalanish va interfaol o‘yinlar, psixologik treninglar orqali ijtimoiylashuv samaradorligi oshiriladi.

5. Shaxsiy namuna jaryonida Tarbiyachi va ota-onalarning kundalik hayotdagi odob-axloqi, muloqot madaniyati bolalarga bevosita samarli ta’sir qiladi.

Xulosa. Maktabgacha ta’lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni ijtimoiylashuv jarayonida milliy umuminsoniy qadriyatlar va xulq-atvorlarni shakllantirish ularning kelajakdagi shaxs sifatida barkamol kamol topishida muhim o‘rin tutadi. Bu jarayonda tarbiyachilar, ota-onalar va jamiyatning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Maktabgacha ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4312-son Qarori. – Toshkent, 2019.

2. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020.

3. Karimova V.M. “Ijtimoiy psixologiya”. – Toshkent: O‘qituvchi, 2017.

4. Yo‘ldosheva Sh. “Maktabgacha ta’lim pedagogikasi”. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

5. Hasanboeva O., Matchonov S. “Pedagogika nazariyasi”. – Toshkent, 2016.

6. G‘ulomova H. “Bola shaxsini shakllantirishda oilaning o‘rni”. – Toshkent, 2020.

7. Vygotskiy L.S. “Bolalar psixologiyasi”. – Moskva, 2012.

8. Bronfenbrenner U. “Ekologik tizimlar nazariyasi va bola tarbiyasi”. – Nyu-York, 2015.